Qabul qilindi: 12-sentabr 2026-yil • Ma’qullandi: 18-sentabr 2026-yil • Nashr qilindi: 24-sentabr 2026-yil

Til taraqqiyoti

Yarasheva Xosiyatbonu Oybek qizi
Toshkent Davlat Transport Universiteti
Iqtisodiyot fakulteti
“Tarjima nazariyasi va amaliyoti” rus tili guruhi
3-bosqich talabasi

Global axborot makoni tobora kengayayotgan hozirgi davrda til — nafaqat aloqa vositasi, balki millatning raqamli maydondagi o‘zligini belgilovchi asosiy omilga aylanmoqda. Texnologiyalar, internet va sun’iy intellektning tezkor rivoji til siyosati masalasini yangi bosqichga olib chiqdi. Shu jihatdan, axborot asrida o‘zbek tilining istiqboli va uning raqamli muhitda o‘z o‘rnini topishi bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biridir.

Ba’zilar axborot asrida o‘zbek tilini raqamli platformalarda rivojlantirish zarur, deb hisoblaydi. Ularning fikricha, tilni zamonaviy texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirish orqali milliy o‘zlikni saqlash va xalqaro maydonda o‘zbek tilining nufuzini oshirish mumkin. Birinchidan, davlat miqyosida o‘zbek tilining raqamli infratuzilmasini rivojlantirish yo‘lida sezilarli ishlar amalga oshirilmoqda.

Masalan, “O‘zbek tilining milliy korpusi”, “ZiyoNET”, “Davlat xizmatlari portali” kabi loyihalar o‘zbek tilining elektron shaklda ishlatilish doirasini kengaytirmoqda. Ikkinchidan, ijtimoiy tarmoqlar va blogerlik faoliyati orqali o‘zbek tili ommaviy kommunikatsiyaning faol vositasiga aylanmoqda. Bu esa yosh avlod orasida ona tilida fikrlash, yozish va muloqot qilish madaniyatini mustahkamlamoqda. Uchinchidan, dasturlash va sun’iy intellekt sohalarida o‘zbek tilining qo‘llanilishi bo‘yicha ilk natijalar ko‘zga tashlanmoqda. Masalan,

ChatGPT, Google Translate kabi tizimlarda o‘zbek tili paydo bo‘lishi uning xalqaro

e’tirofga erishayotganidan dalolat beradi. Boshqalar esa bu jarayonni murakkab va sekin kechayotganini ta’kidlaydi. Ularning fikricha, global tarmoqlarda ingliz tili va boshqa xalqaro tillarning ustunligi o‘zbek tilining raqamli maydonda keng rivojlanishiga to‘sqinlik qilmoqda. Masalan,internetdagi kontentning qariyb 60–70 foizi ingliz tilida bo‘lib, o‘zbek tilidagi materiallar ulkan raqamli oqimda juda kichik ulushni tashkil etadi. Bu esa tilni xalqaro miqyosda tanitishni murakkablashtiradi. Bundan tashqari, ilm-fan, texnologiya va tibbiyot sohalaridagi adabiyotlarning aksariyati ingliz, rus yoki xitoy tillarida nashr qilinadi. Natijada, ilmiy izlanishlar o‘zbek tilida olib borish cheklangan. TIl YO'QOLSA MILLAT HAM YO'QOLADI DEGANlaridek, Bugun ko‘plab yoshlar orasida til aralashuvi holatlari kuchaymoqda: ular bir jumlada o‘zbek, rus va ingliz tillarini aralashtirib so‘zlashadi. Bu esa o‘zbek tilining sof grammatik va leksik tizimiga putur yetkazadi.

Fikrimcha, axborot asrida o‘zbek tilini rivojlantirish — bu murakkab, ammo hal etilishi mumkin bo‘lgan zaruratdir. Rivojlanishning kaliti — texnologiyani o‘zbek tiliga moslashtirishda. Agar dasturiy mahsulotlar, ilmiy platformalar, elektron ta’lim tizimlari va sun’iy intellekt dasturlari o‘zbek tilida faol ishlasa, tilning nafaqat ichki, balki xalqaro nufuzi ham ortadi. Shu bilan birga, har bir fuqaro, ayniqsa, o‘qituvchi va olimlar tilni to‘g‘ri, ravon va zamonaviy shaklda ishlatishga e’tibor berishi zarur.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, axborot asrida o‘zbek tilini rivojlantirish jarayoni nafaqat tilshunoslik, balki milliy madaniyat, raqamli texnologiya va ta’lim tizimi bilan bevosita bog‘liqdir. Agar jamiyatning har bir a’zosi bu borada faol ishtirok etsa, o‘zbek tili nafaqat milliy, balki global miqyosda ham raqamli merosga aylanishi mumkin. Demak,tilni saqlash uchun raqamli platformlarda ham rivojlantirish muhim va zarur.